

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

UMARXODJAYEV BOSIT BOXADIROVICH

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MADANIYAT
MUASSASALARINING O‘RNI

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Umarxodjayev Bosit Boxadirovich

Milliy o‘zlikni anglashda madaniyat
muassasalarining o‘rni..... 3

Умарходжаев Босит Бохадирович

Роль учреждений культуры в развитии
национального самосознания 23

Umarkhodjaev Bosit Bokhadirovich

The role of cultural institutions in
understanding national minorities identity 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

UMARXODJAYEV BOSIT BOXADIROVICH

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MADANIYAT
MUASSASALARINING O‘RNI

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/San146 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nishonboyeva Qunduz Vahobovna
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ahmetjanova Muqaddas Vahobovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Qo'ldoshev Sherali Temiraliyevich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 28-yanvar soat 14⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).


Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).


Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 6-yanvar kuni tarqatildi.

(2026-yil 6-yanvardagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi).




M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor


J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor


A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan tezkor axborotlar almashinuvi jarayonida shaxs ma'naviyatini yuksaltirish jamiyatning barqaror taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Hozirda milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi va uning sayozlashuviga ta'sir o'tkazayotgan omillar, milliy ma'naviyatlarning yemirilish jarayonlari, globallashuv sharoitida millat va uning istiqbollari, millat va milliy g'oya, ularni o'zaro munosabatlarini o'rganishda bir-biriga zid bo'lgan g'oyalar ilgari surilmoqda. Milliy o'zlikni anglash va uning asosiy omillari hamda o'ziga xos xususiyatlari, shaxsning ma'naviy inqiroziga sabab bo'luvchi omillar va uni oldini olish yo'llari, shaxs ma'naviyatini yuksaltirish kabi masalalarga alohida, muhim bir kategoriya sifatida doimiy e'tibor berilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon madaniyatshunoslik ilmda milliy o'zlikni anglashga intilish va uning barqarorligini ta'minlashda keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. O'zbek xalqi millat bo'lib shakllangan va undan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yuzaga kelgan milliy o'zlikka xos belgi va xususiyatlar sharoitlar o'zgarganda ham milliy o'zlikni tashkil etuvchi muhim omil ekanligiga e'tibor qaratilmoqda. Har qanday millat, shu jumladan o'zbek xalqi ham tarixiy taraqqiyot mobaynida xo'jalik, ijtimoiy, madaniy faoliyat, fan, adabiyot, san'at va diniy qarashlar sohasida to'plangan tajribalaridan foydalanish bilan bir vaqtda, ularni avloddan avlodga meros qoldirishi zarurati dolzarb hisoblanmoqda.

Yangi O'zbekistonda o'zlikni anglash, millat tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri"¹ ekanligi asosiy vazifa sifatida qo'yilmoqda. Milliy o'zlikni anglash jahonning barcha mamlakatlariga aloqador bo'lgan globallashuv jarayoni sur'atlarining tezlashib borishi bilan bog'liq muammolarga ma'naviy yechim topish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 14-avgustdagi PQ-3201-son "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 1-jild. – B. 29.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilab qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu soha bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda, adabiyotlar tahlili bilan tanishib chiqqanimizda, ularni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkinligi aniqlandi. Birinchi guruhga oid tadqiqotlar o‘zbek xalqining milliy madaniyatiga oid tadqiqotlar bo‘lib, ko‘proq mustaqillik davrida o‘zbek milliy madaniyatidagi islohotlar, madaniy jarayonlarning hozirgi holatlari va erishilgan yutuqlar haqida fikr yuritilgan. Jumladan: S.Abduxoliqov, V.Alimasov, A.Haydarov, I.Jabborov, A.Mavrulov, M.Mavrulova, N.Musayev, G.Nishonboyeva, Q.Nishonboyeva, N.Ortiqov, U.Qoraboyev, M.Xolmo‘minov, N.Yunusova va boshqalarning adabiyotlarida o‘zbek milliy madaniyati tarixi va mustaqillik yillarida yuz bergan o‘zgarishlar haqida fikr yuritilib, o‘zbek milliy madaniyatidagi transformatsion o‘zgarishlar va innovatsiyalarga to‘xtalib o‘tilgan².

Jahon madaniyatshunosligida Sharq va G‘arb madaniyati tarixi, ularning ayrim xususiyatlari va falsafiy ahamiyati, bu borada shakllangan va qaror topgan g‘arbona hamda sharqona qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq mavzularda tadqiqotlar olib borilmoqda. Aynan, milliy o‘zlikni anglash va milliy madaniyat mavzusida antik davr Yevropa faylasuflaridan Aristotel, Platon, Sitseron, Suqrot asarlari hamda Sharq mutafakkirlari asarlarida keltirilgan falsafiy fikrlariga e’tibor berildi. O‘zlikni anglash to‘g‘risida sharq va g‘arbdagi ma’rifatparvarlarning mulohazalari milliy g‘oya hamda milliy o‘zlikni anglash bilan bevosita bog‘liqdir. “O‘zlikni anglagin” shiori Yunonistonda yaratilgan falsafaning asosiy masalasi bo‘lib kelgan. Alloma Suqrot (mil.av. 469–399)ning ushbu “o‘zlikni anglagin” so‘zlari ma’rifatparvarlik qoidasiga aylanib borgan. Ushbu hikmatga ikki yarim ming yil bo‘lgan bo‘lsa-da, uning qimmati yo‘qolgan emas.

Milliy o‘zlikni anglash tushunchasi dastlab miloddan avvalgi IX asrda, qadimgi hind eposlarida yozilganligi haqida ilmiy mulohazalar bor. O‘zlikni anglash haqidagi konsepsiyalar ilk bora G‘arbiy Yevropada shakllangan bo‘lib, olimlar T.Lipps,

² Abduxoliqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi. – Toshkent: Fan, 1998. – 196 b.; Алимасов В. Особенности развития культурно-просветительных учреждений в условиях перехода Узбекистана к рыночным отношениям: Автореф. дисс... док. филос. наук. – Ташкент, 2001. – 50 с.; Haydarov A. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2019. – 300 b.; Jabborov I. Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasini. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 221 b.; Mavrulov A. Ma’naviy sog‘lomlashtirish davri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 96 b.; Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o‘zgarishlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – 136 b.; Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 352 b.; Musayev N. Madaniyatshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 254 b.; Nishonboyeva G. Mustaqillik davri madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2023. – 131 b.; Nishonboyeva Q. Madaniyatning millatlararo va umumbashariy muammolari. – Toshkent: O‘zDSMI, 2016. – 192 b.; Ortiqov N. Ma’naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 96 b.; Qoraboyev U. An’anaviy xalq madaniyati: tiklanish va rivojlanish tendensiyalari: Fal. fan. dok. dis. – Toshkent, 1993. – 223 b.; Xolmo‘minov M. Milliy madaniyat – Renessans poydevori. – Toshkent: Metodist, 2023. – 160 b.; Yunusova N.Sh. Ma’naviy madaniyat tizimining falsafiy tahlili: Fal. fan. nom. dis. – Toshkent, 2012. – 155 b.

A.Pfender kabilar asoschilaridan hisoblansa-da³, Rossiyada Ye.Bobolov, L.Lopatin kabi olimlar ham ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan⁴. O‘zlikni anglash XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida nemis faylasuflari tomonidan ham o‘rganilgan. Bu haqda Dekart: “Agar men har qanday predmet, voqea-hodisa haqida so‘z yuritadigan bo‘lsam, avvalo, o‘zimning subyekt sifatidagi mavjud ekanligimni his qilaman”, – deb ta’kidlaydi⁵.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yangi O‘zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg‘unligida madaniyat va san’at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy o‘zlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida madaniyat muassasalarining ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy-ma’rifiy jihatlarini baholash, ularning milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, targ‘ib etish va yosh avlod ongida milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlashdagi o‘rnini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

madaniyat muassasalari orqali madaniyatni keng targ‘ib etishda yangi innovatsion g‘oyalardan va texnologiyalardan samarali foydalanishga xos qarashlarni ochib berish;

madaniyat muassasalarida kreativ tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va ushbu yo‘nalish orqali madaniyat muassasalarini iqtisodiy mustahkamlikka erishishni ta’minlashning yangi mexanizmlarini ochib berish;

madaniyat sohasidagi milliy dasturlarni tayyorlashda yosh avlod vakillarini jalb qilish muammolarini tahlil etish;

madaniyat muassasalari uchun ixtisoslashgan, zamonaviy bilim va malakaga ega kadrlarni tayyorlashning ilmiy asoslarini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida madaniyat muassasalarida milliy o‘zlikni anglash jarayoni va tendensiyalari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy o‘zlikni anglash jarayonida madaniyat muassasalari faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil, tarixiy taqqoslash, kuzatuv, umumlashtirish, muvofiqlashtirish, tajriba sinov hujjatlarini o‘rganish kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxsda milliy o‘zlik hissi shakllanishi millat rivojlanishi, jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitining barqarorlashuvi, milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlarida o‘zini safarbar etish ko‘nikmasining paydo bo‘lishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan;

³ Theodor Lipps German psychologist. Encyclopedia Britannica. Retrieved 2018-11-07.; Pfänder-Studien, hrsge. von H.Spiegelberg und A. Ave-Lallement. Den Haag, 1982.

⁴ Боболов Э. Психологический анализ литературного творчества в работах отечественных психологов конца XIX – 30 годов XX века: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. – Москва, 2008. – 23 с.; Лопатина Н. Отношение очевидцев коллективизации к реформам 1990-х гг. в России // Международный научный журнал «символ наука». – № 9. 2016. – С. 183-190.

⁵ Qo‘chqarov V. Milliy o‘zlikni anglash va barqaror taraqqiyot. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – B. 20–21.

fuqarolar ongida milliy o'zlikni anglash jarayonining samaradorligini oshirishda madaniyatning ijtimoiylashuvi ustuvor ahamiyatga egaligi, mazkur holat Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat va yangi ma'naviy makonni barpo etish bilan mantiqiy bog'liqligi isbotlangan;

globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash millatlar, jamiyatlar, davlatlar taraqqiyotining bazaviy asoslarini belgilab berishi, uning asosida kishilarda ijtimoiy faollik, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish, ijtimoiy himoyalash, o'z-o'zini g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan nazorat qila olish ko'nikmalari shakllanishi dalillangan;

madaniyat fenomeni orqali milliy o'zlikni anglash e'tiqodi sust fuqarolar, ayniqsa yoshlarda kosmopolitik, gedonistik, marginallik tafakkur tarzidan qutulishda, ularda mustahkam ma'naviy qiyofaning shakllanishida, tarixiy xotira tufayli milliy g'urur va milliy iftixor tushunchalarining real hayotda ularning amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, milliy o'zlik bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ssenariylar, uslubiy qo'llanma va ishlanmalar yuzasidan ilmiy tahlil, tavsiyalar berilgan;

mavjud o'quv adabiyotlariga qo'shimcha tarzda madaniyatshunoslik va san'atshunoslik sohalari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar orasida "milliy o'zlikni anglashda madaniyat muassasalarining tutgan o'rni" nomli so'rovnoma-anketalar tarqatilib, javoblari ilmiy tahlil qilingan;

madaniyat muassasalari faoliyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar darajasida to'g'ri yo'naltirishning nazariy taraflari va amaliy takliflari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan anjumanlar materiallaridagi maqola va tezislarida, OAK tomonidan ro'yxatga olingan maxsus jurnallardagi maqolalarida, chet eldagi ilmiy nashrlarida, tadqiqot ishida ilmiy yangiliklarining amaliyotga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettirishda hamda Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirishda muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada o'z yechimini topgan masalalar bo'yicha olingan ma'lumotlar milliy o'zlikni anglashda madaniyat muassasalarining o'rni, oliy o'quv yurtlarida etnomadaniyat bo'yicha maxsus kursni o'qitishda darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy o'zlikni anglashda madaniyat muassasalarining o'rni mavzusida olingan tadqiqot natijalari asosida:

shaxsda milliy o'zlik hissi shakllanishi millat rivojlanishi, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitining barqarorlashuvi, milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarida o'zini safarbar etish ko'nikmasining paydo bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlanganligiga doir xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022–2023-yillarda o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yil 17-noyabrda 02-12-14-7811-son ma'lumotnomasi). Natijada, madaniyat

markazlariga yoshlarning muntazam va tizimli qatnovi yo'lga qo'yish, malakali va oliy ma'lumotli kadrlarni jalb qilishning yangicha usullari ishlab chiqilgan;

fuqarolar ongida milliy o'zlikni anglash jarayonining samaradorligini oshirishda madaniyatning ijtimoiylashuvi ustuvor ahamiyatga egaligi, mazkur holat Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat va yangi ma'naviy makonni barpo etish bilan mantiqiy bog'liqligi isbotlanishiga doir xulosa va takliflardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlari to'g'risidagi dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti"ning 43-bandi "Internetda milliylikni targ'ib qiluvchi, mentalitetimiz, azaliy qadriyat va ezgu an'analarimizni saqlab qolish bo'yicha o'zaro muloqot maydoni uchun platforma va mobil ilovalar yaratish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazilishida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 27-apreldagi 02-11/365 son ma'lumotnomasi). Natijada, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" shiori ostida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkazilgan "Ma'naviyat festivali" doirasida turli xil loyihalarni amalga oshirishda faktik materiallar, manbalar va ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash millatlar, jamiyatlar, davlatlar taraqqiyotining bazaviy asoslarini belgilab berishi, uning asosida kishilarda ijtimoiy faollik, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish, ijtimoiy himoyalash, o'z-o'zini g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan nazorat qila olish ko'nikmalari shakllanishi dalillanganligiga oid xulosa va takliflardan "Mening yurtim" telekanalining "O'zimizning gaplar" ko'rsatuvida foydalanilgan ("Mening yurtim" telekanalining 2024-yil 27-iyundagi 347/24-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglashda madaniyat muassasalarida olib borilgan tadbirlar, turli badiiy kechalarning ahamiyatini tadqiq qilishga xizmat qilgan;

madaniyat fenomeni orqali milliy o'zlikni anglash e'tiqodi sust fuqarolar, ayniqsa yoshlarda kosmopolitik, gedonistik, marginallik tafakkur tarzidan qutulishda, ularda mustahkam ma'naviy qiyofaning shakllanishida, tarixiy xotira tufayli milliy g'urur va milliy iftixor tushunchalarining real hayotda ularning amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi isbotlanganligiga oid xulosa va takliflardan madaniyat sohasidagi rahbar lavozimidagi davlat xizmatchilarining kasbiy kompetentsiyalarini baholashga oid mezonlar (indikatorlar)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2025-yil 14-yanvardagi 02/73-son dalolatnomasi). Natijada, madaniyat muassasalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish, milliy identiklikni saqlash va rivojlantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 5 ta respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilangani. Dissertatsiya bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shundan xorijiy jurnallarda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar soni, tadqiqotning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyat tushunchalarining tarixiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki bo'limdan iborat. Mazkur bobda milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyat tushunchalari, tarixiy nazariy masalalari, o'rganilishi, tarkibiy qismlari, ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi o'rni, o'zbek xalqining milliy o'zlikni anglash borasidagi qarashlari, til, tarixiy xotira, din, milliy va umuminsoniy qadriyatlari madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, milliy o'zlikni anglashning tarixiy-nazariy asoslarining asosiy mazmun-mohiyatini tushunish uchun ularning tasniflanishiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Bobning birinchi bo'limi **“Milliy o'zlikni anglash tushunchasi va uning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda XXI asr har bir kishidan yangi qobiliyatlar, intellektual salohiyat, kuchli tafakkur, o'tkir zehn bilan birga, o'zini shaxs sifatida tarkib toptirish, milliy g'urur, o'zlikni anglash masalalari ochib berilgan. O'zlikni anglash bevosita madaniyat va tarix bilan bog'liq hodisadir. Millatni shakllanishida bu ikki hodisaning o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi. Zero, madaniyatimizning falsafiy-estetik negizlarini xolisona yoritilgan tarixiy haqiqat asosida tadqiq qilish milliy-mafkuraviy kesimda ulkan ahamiyatga molik bo'lib, zamonaviy madaniyatshunoslik fanlari oldidagi keng ko'lamli vazifalarni belgilaydi va yangi ilmiy-uslubiy imkoniyatlarni yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarixga alohida e'tibor qaratishni ta'kidlab, “Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim”ligiga alohida e'tibor qaratadilar⁶.

O'zlikni anglashning tarkibiy qismlari borasida ko'pgina tadqiqotchilar o'z fikrlarini qayd qilib kelgan. O'zlikni anglashning rivojlanishida asosiy ma'naviy vazifalar ziyolilarga yuklanadi.

Shu bilan birga, o'zlikning shakllanishi, avvalo, millat hayotiy faoliyatining maqsad va marralarini belgilaydi, uning o'z g'oyalari, mafkurasi, nazariy tilda aytsak, o'z konsepsiyasining shakllanishi bilan uzviy bog'liqligi ochib berilgan. M.Belyayevning fikriga ko'ra, butun insoniyat yaxlit organizmida har bir millatning o'z o'rnini belgilay oladigan g'oyasi bo'lishi kerak va millatning g'oyasi davlat quruvchanligidadir⁷. Bizningcha, o'tmish ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqib hozirgi milliy g'oyamiz asosiga qo'yilgan “komil insonlar jamiyatini qurish” g'oyasi bundan ancha keng va chuqur mazmunga ega.

⁶ <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

⁷ Беляев М. Идеология русского национального государства. – Москва: Мысль, 2006. – С. 58.

Tadqiqotda millatni ijtimoiy-tarixiy shakllanishi insonlarning o‘zaro til, madaniyat, hudud, din (ma’naviy, ruhiy) yaqinligi orqali ma’lum bir tarixiy sharoitda sodir bo‘ladi, degan qarashlar ilgari surilgan.

Ma’lumki, milliy g‘oya bilan o‘zlikni anglashda tarkibiy-funksional bog‘liqlik mavjud bo‘lib, milliy g‘oya milliy o‘zlikni anglashga yordam beradi. Ular quyidagilardan iborat: birinchidan, milliy-ma’naviy merosga, millatga mansubligini anglash; ikkinchidan, ona tiliga hurmat; uchinchidan, milliy qadriyatlarga ishonch va e’tiqod; to‘rtinchidan, tarixiy merosga munosabat; beshinchidan, diniy qadriyatlarga hurmat; oltinchidan, umuminsoniy qadriyatlar milliy o‘zlikni anglashning muhim omilidir⁸.

“O‘zlikni anglash”, “milliy o‘zlikni anglash” va “umumbashariy o‘zlikni anglash” tushunchalari bir-biridan ayri emas, balki bir-biri bilan uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadi. Zero, inson ota-ona, oila, millat, ahli bashar butun borliq bilan munosabatlar asosida o‘zining kim ekanligini anglab boradi. Aynan shu munosabatlar zahirida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g‘oya tamoyillari shakllanadi va o‘z navbatida milliy g‘oya ularni zamon talablari asosida boyitib boradi.

O‘zlikni anglashning turli talqinlari bo‘lib, insoniyat falsafiy tafakkuri tarixida o‘zlikni anglash masalasi turlicha talqin etilgan:

Dunyoviy talqiniga (Yevropada) ko‘ra inson jismining o‘tkinchiligi, ruhning esa abadiyligi (cherkov otasi Avgustin tan ruh uchun qafasdir) masalasini zohiriy talqin etganlar.

O‘zlikni anglash ong osti darajasida hosil bo‘lib, tafakkur darajasida namoyon bo‘ladi; o‘zining milliy xususiyatlarini saqlab qolishga intilayotgan individlar qarashlarini aks ettiradi.

O‘z-o‘zini anglash quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ko‘niktirish.
2. Himoyalash.
3. Bilish.
4. O‘zini nazorat qilish.

Ko‘niktirish funksiyasi – hayotiy faoliyat davomida individning milliy xususiyatlariga o‘rganishidir. Bu jarayonda asosiy rolni o‘zida qadriyatlarning xususiyat tizimini saqlaydigan til o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu yerda tarixiy voqealarga hamda qahramonlar, milliy madaniyat namoyondalariga ham tayaniladi. Til o‘rganish orqali shaxs milliy madaniyat olamiga kirib boradi.

Milliy o‘zlikni anglashning himoya funksiyasi madaniy qadriyatlarni saqlashda namoyon bo‘lib, milliy madaniy qiziqishlarni himoyalash va rivojlantirish, milliy qadriyatlarni ichki yoki tashqi ta’sirlardan asrashni ta’minlaydi. Shuningdek, milliy o‘zlikni anglash an’alarini avloddan avlodga uzatishda, bundan tashqari, tarixiy, diniy va madaniy boyliklarni saqlashda ishtirok etadi.

Madaniy hayotda tilning o‘rni beqiyosdir. Milliy ongni yuksaltirishda, millat vakili bo‘lgan insonning o‘zligini anglashda, milliy g‘oyaning umuminsoniy tamoyillarni hayot tarziga singdirishda milliy tilni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Insoniyat tarixida muayyan millatni o‘zligidan mahrum qilmoqchi bo‘lsa, avvalo,

⁸ Xo‘jamurodov I., Saparov B. Milliy g‘oya tizimida o‘zlikni anglash tuzilmasi (tuzilmaviy-funksional tahlil). – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 17.

millatni tilidan, tarixidan mahrum etishga uringanlar. Bunga misol, Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosati milliy tuyg'uni poymol etishga, milliy qadriyatlarni toptashga, milliy tilni, madaniyatni yo'qotib yuborishga qaratilganligini ko'rsatish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bo'limi **“Madaniyat sohasini rivojlantirishning konseptual asoslari”** deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida madaniyat alohida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan sohalaridan biri ekanligi va Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyatning barcha sohalariga alohida e'tibor bilan birga, bu sohani rivojlantirish uchun konseptual nazariy mezonlar asosida muhim qarorlar amalga oshirilganligi ta'kidlangan.

2016–2024-yillar davomida madaniyat sohasini rivojlantirish uchun 30 ga yaqin Prezident farmonlari, qonunlar, qarorlar va farmoyishlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ–4038-son qarori muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ishida Madaniyat vazirligining alohida strukturaviy tizimi ajratib olinib, islohotlarni shu sohaning o'ziga tegishli yo'nalishlarini belgilab olindi. O'zbekiston xalqi madaniyatini yuksaltirish, madaniyat markazlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda madaniyat va san'at sohasi vakillarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha har taraflama chora-tadbirlar amalga oshirilishi ushbu konsepsiyada ko'zda tutilgan edi.

O'zbek millati taraqqiyotida milliy o'zligini anglash jarayoni, Rossiya imperiyasi qo'shinlari Turkistonni bosib olishi va o'z hukmronligini o'rnatishi masalasi tarixiy asarlarimizda o'z aksini topgan bo'lsa-da, teatr, kino kabi san'at sohalarida, madaniyat muassasalarida qay darajada yoritilgan? O'zbek xalqining boshiga tushgan bu og'ir kulfatlar haqida so'z yurituvchi Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari asosida rejissyor Shuhrat Abbosov tomonidan 1997-yilda suratga olingan murakkab syujetli filmni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, mazkur asar 2020-yilda Sirdaryo viloyati drama teatrida Nigora Gayibnazarova tomonidan sahnalashtirilgan.

Tadqiqot ishida madaniyat tashkilotlarining joriy holatini ham tadqiq qilingan. Uning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari ilmiy tahlil qilingan. Unga ko'ra, bugungi davrga kelib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi, 39 ta professional teatr, 450 dan ortiq turli yo'nalishdagi muzeylar, 826 ta madaniyat markazi, 70 dan ortiq xalq teatrlari, 100 dan ortiq namunali va xalq folklor jamoalari, 152 ta ashula va raqs xalq ansambli, 23 ta vokal-cholg'u estrada xalq ansambli, 3 mingdan ortiq badiiy havaskorlik to'garaklari, bundan tashqari, 312 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 225 ta madaniyat va istirohat bog'i, 200 ga yaqin tuman (shahar) madaniyat bo'limlari hamda yana bir qancha madaniyat va san'at muassasalari ish faoliyatini olib borayotganligini ko'rsatib o'tgan⁹.

Tadqiqotda mavzuni ilmiy tahlil qilishga harakat qilingan va unga ko'ra “madaniyat muassasalari va maskanlari” tushunchasi madaniyat maskanlari, teatr, kino, muzey, kutubxona, san'at saroyi, madaniyat va istirohat bog'lari, ma'naviyat va

⁹ O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining joriy hujjatlari. – Toshkent, 2022-yil. – B. 20.

ma'rifat markazi, bolalar va o'smirlar ijod markazlari, OAV, nashriyotlar, ta'lim maskanlari majmuini anglatadigan tushunchadir. Keyingi vaqtlarda ular safiga xalqaro va milliy-madaniy markazlar, xalq amaliy san'ati bilan shug'ullanadigan kichik korxonalar, firmalar va xususiy ustaxonalar, oila, mahallaning qo'shilishi xalq ommasining ijtimoiy-madaniy hayotida faol ishtirokini ta'minlaydi¹⁰.

Tadqiqot ishida, bu klub muassasalari sobiq sovet davrida kommunistik partiyaning g'oyalarini agitatsiya va propaganda ishlarini olib borishda tayanch maskan bo'lib xizmat qilgan. Biroq, milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq masalalar chetda qolib ketishi bilan birga, unga qarshi targ'ibot ishlari ham olib borilgan.

Mustaqillik yillarida nashr etilgan kitoblarda madaniyat muassasalari turlicha atalgan, xususan, 2010-yilda chop etilgan "Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati" kitobida "Madaniyat va ma'naviyat o'choqlari" deb unga madaniy maskanlar, teatr, kino, muzey, kutubxona, san'at saroyi, madaniyat va istirohat bog'lari, ma'naviyat va ma'rifat markazi, bolalar va o'smirlar ijod markazlari, OAV, nashriyotlar, ta'lim maskanlari kirishi¹¹ni ta'kidlangan.

Madaniyatshunos olimlar A. Umarov va U. Qoraboyevlarning yozishicha, "Madaniy-ma'rifiy muassasalar tub ma'noda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-hordiqiy, ijodiy ishlar bilan shug'ullanadigan maskanlar faoliyati"¹². Ularga eng avvalo, madaniyat markazlari, kutubxona, axborot-kutubxona markazlari (AKM), axborot-resurs markazlari (ARM), muzeylar, istirohat bog'lari faoliyati kiradi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar (madaniyat markazlari, kutubxona, AKM, ARM, muzey, istirohat bog'i) – aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini, bilimni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini o'tkazishga ko'mak beruvchi tashkilotdir¹³.

A. Ochildiyevning yozishicha, "Madaniy qadriyatlarni tarqatishda, kishilar tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirishda, har tomonlama rivojlangan insonni tarbiyalashda madaniyat muassasalari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Madaniyat muassasalari deganda badiiy tomosha (teatr, konsert-gastrol tashkilotlari, sirk) va madaniy-oqartuv tashkilotlari (muzeylar, bibliotekalar, klublar, parklar) tushuniladi"¹⁴.

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida madaniyat va milliy o'zlik nisbati"** nomli ikkinchi bobi ikki bo'limida O'zbekistonning rivojlanishida milliy o'zlikni anglash, milliy identiklik masalalari, tarixiy xotiraning shakllanishida madaniyat muassasalarning o'rni va roli, Yangi O'zbekiston sharoitida bu masalalarning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan holda tahlil qilingan. Har bir millat va davlatning taraqqiyoti o'z navbatida madaniyat va unga tegishli bo'lgan ijtimoiy institutlarning o'rni va roli bilan rivojlanadi, taraqqiy topadi. Jamiyatda ijtimoiy institutlarning o'rni va ahamiyati har doim ham bir tarzda kechavermaydi.

¹⁰ Nishonboyeva G. Mustaqillik davri madaniyati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2023. – B. 31.

¹¹ Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 273.

¹² Umarov A., Qoraboyev U. Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – B. 13.

¹³ Umarov A., Qoraboyev U. Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – B. 13.

¹⁴ Ochildiyev A. Madaniyat falsafasi. – Toshkent: Muharrir, 2010. – B. 88.

Shuningdek, Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga tegishli bir qator qonun, qonunosti hujjatlarida keltirib o'tilgan muammo yechimlari nuqtayi nazaridan ilmiy tahlili, ijtimoiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Bobning **“Madaniyatda milliy o'zlikni anglash va milliy identiklik masalasi”** nomli birinchi bo'limi O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida madaniyat alohida davlat siyosati darajasida amalga oshiriladigan sohalaridan biri hisoblanishi urg'ulangan. Shuningdek, dissertant Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyatning barcha sohalariga alohida e'tibor bilan birga, bu sohani rivojlantirish uchun konseptual nazariy mezonlar asosida muhim qarorlar amalga oshirilganligini ilmiy tahlil qilgan.

Hozirgi kunda “o'zlikni anglash” tushunchasidan ko'ra, uning inglizcha (identity) yoki ruschadan (идентичность) kirib kelgan shakli muqobil atama sifatida keng qo'llanilmoqda. Ta'kidlash joizki, xorij antropologiyasida “identiklik” alohida ilmiy konsepsiya darajasiga ko'tarilgan.

“Identiklik” lotin tilidan olingan bo'lib, “identifico”, ya'ni “bir-biriga aynan o'xshash” degan ma'noni bildiradi. Identiklik atamasi o'rniga o'zbek tilida ko'pincha gapdagi mazmuniga qarab “o'zlik” yoki “o'zlikni anglash”, shuningdek, “monandlik”, “mansublik”, “o'xshashlik”, “bir xillik” va shu kabi boshqa atamalar ham ishlatiladi. “Identiklik” tushunchasini fanga kirib kelishi psixoanalitika asoschisi Zigmond Freyd tomonidan kiritilgan. U “o'zlik” masalasiga ilk marotaba individning ruhiy moslashuvi (psixologik adaptatsiyasi) mexanizmi sifatida qaragan va o'z davrida o'zlikni anglash jarayonining g'ayriushuriy (ongsiz) rolini o'rganishga katta hissa qo'shgan¹⁵.

Milliy identiklikni tushunishda yondashuvlar tahlilini mutaxassislar instrumental, primordial va konstruktiv yondashuvlarga ajratadilar. Aynan shu yondashuvlar identiklik omilini belgilashda ko'plab munozara va bahslarga sabab bo'lmoqda.

“Milliy identiklik” ta'limoti P.Alter nazariyasiga ko'ra mavjud komponentlarni madaniy-milliy identiklik va fuqaroviy va siyosiy monandlikka ajratadi. Unga ko'ra madaniy-milliy identiklik asosini – an'analar, urf-odatlar, diniy e'tiqod, til umumiyligi qamrab oladi. Fuqaroviy va siyosiy identiklikning shakllarini esa sotsiumda istiqomat qilayotgan aholi qatlamining siyosiy ongi va huquqiy madaniyati rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan integratsiyalashtiruvchi omil, ya'ni jamoaviy identiklik tashkil etadi¹⁶.

Tadqiqotimizda milliy identiklikning strukturaviy komponentlarini quyidagicha tasnifladik: a) emotsional-hissiy komponent; b) xulq-atvor komponenti; v) kognitivlik komponenti. O'z navbatida, emotsional-hissiy komponent: a) milliy tuyg'u; b) iftixor; v) kayfiyat; g) milliy xarakterni; xulq-atvor komponenti: a) fuqarolik pozitsiyasini ko'rsatish; b) o'zi mansub bo'lgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash; v) ijtimoiy munosabatlar birligini taklif etish; kognitivlik komponenti: a) milliy ong; b) milliy o'zlikni anglash (ratsionallik) omillarini tashkil etishini taklif qildik.

Identiklikning ajralmas qismi bo'lmish milliy identiklik millat borlig'i va rivojining manbai, milliy davlatchilikning asosi va mavjudlik shartidir. Odamlar xulq-atvorini yo'naltirish va tartibga solish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladigan yangi qadriyat mo'ljalini, milliy g'ururni shakllantiruvchi, milliy identiklikni qayta va qayta

¹⁵ Фрейд Зигмунд. Введение в психоанализ. Лекция. – СПб., 1999. – С. 19.

¹⁶ Peter Alter. Nationalism. 1989. London. New York. Edvard Arnold UK. – P. 38.

yaratishga qodir milliy ideallar, g'oyalar va mafkurani rivojlantirish borasida alohida tadqiqotlar olib borilishi global integratsiya davri talabiga aylanmoqda.

“Milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotiraning shakllanishida madaniyat muassasalarining o'rni” nomli ikkinchi bo'limida O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan madaniyat va san'at muassasalarini qayta isloh qilishga qaratilgan ishlar bilan birga, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotiraning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, yo'nalishlar tahlili berilgan.

Shu bilan birga, mazkur bobda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”¹⁷gi PQ-3201-son qarori imzolandi. Ushbu qaror madaniyat va san'at xodimlari mehnatini rag'batlantirish, iste'dodli va istiqbolli yoshlarning ijod qilishlari uchun katta e'tibor berilganining yorqin namunasi ekanligi masalalariga e'tibor qaratilgan. Unga ko'ra, mustaqil O'zbekiston tarixida ilk marta 2021-yil 20-yanvarda O'zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonuni qabul qilinib, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi belgilangani, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratilganligi keltirib o'tilgan¹⁸.

Milliy o'zlikni anglash milliy tiklanish va milliy yuksalish jarayonlarida muhim o'rin tutib, shaxs va jamiyatning ma'naviy kamolotida, fuqarolik jamiyatining moddiy-ma'naviy asoslarini mustahkamlashda ulkan ahamiyat kasb etadi. Milliy o'zlikni anglash millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi bo'lib, millatning o'z tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarini bilishi, milliy urf-odat va an'analarini e'zozlashi, ajdodlarining ma'naviy merosidan bahramand bo'lgan holda uni asrab-avaylab kelajak avlodga qoldirishi kabi xususiyatlar tushuniladi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir”¹⁹, deb aytgan.

Milliy o'zlikni anglashda tarixiy xotiraning o'rni beqiyos ekanligi, uni asrash dunyo olimlari diqqat-e'tiboridagi mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Hattoki muhojirlar mamlakati sanalgan AQShda ham mazkur mavzuda salmoqli tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda. O'tgan asrning 90-yillarida tamaddunlar to'qnashuvi xususidagi nazariyasi bilan shuhrat qozongan olim Samuel Hantington “Biz kimmiz? Amerika milliy o'zligiga tahdidlar” deb atalgan kitobida aynan shu dolzarb masala to'g'risida so'z yuritadi. Uning ta'kidlashicha: “AQShda yashovchi turli millat vakillarini jipslashtiruvchi qadriyat bu ingliz protestant madaniyatidir. Din amerikanacha milliy o'zlikning javhari bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Amerika

¹⁷ Haydarov A. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 146–148.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida”gi O'RQ-668-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/5230682>.

¹⁹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 29.

davlati diniy tafakkurga tayanib barpo etilgan. Amerikaliklar sanoati rivojlangan boshqa davlatlarga qaraganda diniy e'tiqodda sobitroqdir"²⁰.

Madaniyatning amaliy-siyosiy funksiyalari orqali esa tarixni, o'z o'tmishini bilish, tarixiy jarayonlarni tushunishga asoslangan obyektiv aniq qarorlar qabul qilishi, shuningdek tarix mafkuraviy kurash quroli ekanligini unutmagan holda jamiyatning rivojlanish yo'llarini prognoz qilish imkonini beradi.

Madaniyat muassasalari yordamida tarixiy voqealarni bilish asosida yoshlarda o'z xalqiga nisbatan hurmat, muhabbat tuyg'ulari shakllanadi. Yoshlar ota-bobolarining qilgan ishlari bilan faxrlanishni o'rganadilar. Shu asosda milliy iftixor singari yetuk ma'naviy fazilatlar shakllanadi, milliy ong o'sadi va dunyoqarash mustahkamlanadi. Eng asosiysi, yoshlarning jamiyatga moslashuvi, ya'ni ijtimoiylashuvida tarixiy ong va tarixiy xotiraning ahamiyatini ular anglab yetadilar. Natijada milliy tarixni o'rganish milliy o'z-o'zini anglashga olib keladi. "Milliy o'zlikni anglashni tiklash milliy uyg'onishning jamiyat taraqqiyotining muhim sharti, jamiyat hayotida ro'y beradigan madaniy-ma'naviy o'zgarishlarning asoslaridan biridir"²¹.

Asosiy masalaga e'tibor berilib, bugungi kunda tarixiy merosimiz va uning qadriyatlariga madaniyat muassasalari tomonidan berilayotgan munosabatni ko'rib chiqadigan bo'lsak, yoshlar ongida tarixiy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan munosabat qoniqarli emasligidadir. Ularda tarixiy shaxs yoki qahramonlarimiz haqida tasavvur zaiflashib qolganligini guvohi bo'lish mumkin. Albatta buning asosiy sabablaridan biri, hozirgi davrdagi iqtisodiy munosabatlar, moddiy ehtiyojning ortib borishi shaxsning ma'naviy hayotida ustuvor bo'lib bormoqda. Shuning uchun millat, mamlakat kelajagini o'ylagan har qanday jamiyat ta'lim-tarbiya sohasini moddiy ta'minotiga jiddiy e'tibor berishi, unga keng imkoniyatlar yaratish zarurdir.

Mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, telekanallarda millatimiz tarixiga bag'ishlab ishlangan tarixiy filmlar oz bo'lsa ham tarixiy voqelikni aks ettirish, qahramonlarimiz siymosini badiiy, barkamol etib tasvirlash borasida mukammal emasligi bois lozim darajada ta'sir o'tkaza olmayapti. Yoshlarning ko'pchilida ajdodlar tarixini o'rganishga kuchli ishtiyoq sezilmayapti. Shuningdek, xorijdan kirib kelayotgan tarixiy mavzudagi filmlar ishlanishi va badiiy saviyasi jihatidan milliy kinolardan ancha yuqoriligi bilan yosh kino ixlosmandlarining e'tiborini jalb etib bormoqda. Diqqat markaziga chet el qahramonlarini olib chiqmoqda. Bu esa yoshlarimiz tarixiy ongining milliy qahramonlar namunasi asosida shakllanishiga putur yetkazmoqda.

Mavzu doirasida amalga oshirilgan ishlarning ilmiy tahlili ushbu bobda alohida tarzda ilmiy, miqdoriy sifat jihatdan tahlil qilingan. Unga ko'ra, 2019-yildan madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va aholining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlash maqsadida tuman va shaharlarda bittadan madaniyat markazlari faoliyat boshlagan. Shuningdek, qishloq va shaharlarda ham aholi soni 7 mingdan ortiq bo'lganda madaniyat markazlari tashkil etilgan. Bu borada, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Madaniyat markazlari to'g'risidagi namunaviy Nizom tasdiqlangan. Nizomga muvofiq, markazlar madaniyat boshqarmalari va bo'limlari tomonidan tayinlanadigan

²⁰ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Пер. с англ. яз. Т.Валишева, Ю.Новикова. – Москва: АСТ, 2003. – С. 603.

²¹ Tulenov J. Ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent: Mehnat, 2000. – B. 28.

direktor tomonidan boshqariladi. Markazlarda 33 yoʻnalishda toʻgaraklar (Ashula va raqs, xoreografiya, drama, vokal-cholgʻu, rubob, gʻijjak, Yevropa zarbli cholgʻulari, urma zarbli cholgʻulari, tanbur, dutor, karnay va surnay, xor, akkardeon, klassik gitara, filarmoniya, makrame va toʻqish, kiyimni bichish va kashta tikish, pazandachilik, xalq cholgʻulari ustaxonasi, oʻymakorlik, zargarlik, naqqoshlik, kulolchilik, lapar, alla, oʻlan va aytishuv, baxshi, xalfa ijrochiligi, maqomchilar, askiya, folklor qoʻshiqlari ijrochiligi, katta ashula, shaxmat-shashka, stol tennisi, sogʻlomlashtirish gimnastikasi, badiiy gimnastika), 9 ta studiya (dizayn, teatr, zamonaviy raqs, ovoz yozish, xalq amaliy sanʼati, tasviriy sanʼat, qoʻgʻirchoqsozlik, internet va axborot almashuv texnologiyalarini oʻrganish, foto-video studiyasi), 6 ta kurs (“nutq madaniyati”, rus, ingliz, nemis, fransuz, koreys tilini oʻrganish kurslari), 8 ta qiziquvchilar klublari (“Quvnoqlar va zukkolar”, “Zakovat”, “Oʻzbekim oʻgʻlonlari”, “Qoʻli gul ayollar”, “Oila – muhabbat qasri”, “Tarix-oʻlkashunoslik”, “Tabiat-ekologiya”), 7 ta badiiy havaskorlik jamoalari (teatr, xalq cholgʻular jamoasi, raqs jamoasi, estrada jamoasi, xor, vokal va maqom jamoalari, ashula va raqs, folklor-etnografik jamoalar, sirk jamoalari) tashkil etila boshladi.

Shu bilan birga, tadqiqot ishida markazlar faoliyati samaradorligi baholab borilib, aniq baholash tizimini joriy etish maqsadida onlayn elektron taʼminot bazasi ishlab chiqildi. Mazkur tizim 2020-yil 1-yanvardan tatbiq etilishi boʻyicha fikrlar keltirildi. Yuqorida koʻrsatilgan 33 ta toʻgaraklardan 24 tasi, 6 ta studiyadan 4 tasi, 8 ta qiziquvchilar klubidan 5 tasi, 7 ta badiiy havaskorlik jamoalari faoliyati bevosita milliy oʻzlikni anglash jarayoni bilan bogʻliq hisoblanadi. 2019-yilda 832 ta madaniyat markazlarida jami 4100 ta toʻgaraklar tashkil etilgan boʻlib, jami 54 433 nafar aholi, shundan 46 399 nafar yoshlar qamrab olingan.

Dissertatsiyaning **“Madaniyat muassasalari aholi ijtimoiy ongida milliy oʻzlikni shakllantiruvchi omil”** nomli uchinchi bobida milliy madaniyatning milliy oʻzlikni anglash hodisasiga taʼsiri, transformatsiyasi, madaniyat muassasalarining faoliyati milliy oʻzlikni anglash bilan bogʻliq koʻrsatkichlar, oʻzaro hamkorligi ilmiy tarzda tahlil qilingan.

Uchinchi bobning **“Madaniyatning ijtimoiylashuvi – milliy oʻzlikni anglash omili sifatida”** deb nomlangan birinchi boʻlimida madaniyatning ijtimoiylashuvi bu funksiyalardan biri sifatida madaniyatshunos olimlar tomonidan eʼtirof etilganligi masalalari oʻrganilgan. Ushbu funksiya jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy aʼzosi sifatida zarur hisoblangan maʼlum miqdordagi shartlarni oʻzlashtirishga yordam beradi²². Unga koʻra, bu funksiya idrok, tafakkur, nutq, soʻzlarning qoʻllanishi, ohangi, imo-ishora, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek, talab va qadriyat yoʻnalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarning mustahkamlanishi bilan bogʻliqdir.

Tadqiqot ishida ijtimoiylashuvning ijtimoiy funksiyalari sifatida quyidagilar belgilandi: 1) ijtimoiy-tarixiy jarayon subyektini shakllantiradi; 2) madaniyat va sivilizatsiya taraqqiyotida vorisiylikni taʼminlaydi; 3) individni ijtimoiy muhitga moslashtirish orqali jamiyatning toʻqnashuvlarsiz taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda ijtimoiylashuv muammolarini oʻrganishda falsafiy, sotsiologik,

²² Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – B. 46.

ijtimoiy-psixologik va tarixiy-etnografik tahlil natijasida yaratilgan uslub va yondashuvlardan kompleks foydalanish tendensiyasi yuzaga kelmoqda.

Milliy o'zlikni anglash milliylikka mansub barcha xususiyat va jihatlarni ko'zda tutadi. O'zbek xalqining milliy o'zligini anglashga intilishi va uni ko'z qorachig'idek saqlashi millat uchun xarakterli jihati ekanligini alohida ta'kidlagan. Chunki, o'zbek xalqi millat bo'lib shakllangan va undan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yuzaga kelgan milliy o'zlikka xos belgi va xususiyatlar sharoitlar o'zgarganda ham milliy o'zlikni tashkil etuvchi omillar sifatida saqlanib qolaveradi²³.

